



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Муратов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARIDA DIVERSIFIKATSIYANING HUDUDIY JIHATLARI

РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИВЕРСИФИКАЦИИ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТРАСЛЯХ

REGIONAL ASPECTS OF DIVERSIFICATION IN AGRICULTURAL SECTORS

Teshabayeva Odina Nasridinovna dotsent, i.f.f.d., PhD
Xasanova Ruxsora magistrant, iqtisodiyot fakulteti, FarDU

Annotatsiya

Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida diversifikatsiya jarayonining hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turli hududlarda diversifikatsiyaning samaradorligi va yo‘nalishlari mavjud resurslar, iqlim sharoiti, mehnat bozori hamda infratuzilma salohiyati asosida o‘rganilgan. Ilmiy tahlil natijasida hududiy diversifikatsiya modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, diversifikatsiya, hududiy rivojlanish, agrar sektor, resurslar, bozor infratuzilmasi.

В данной статье анализируются региональные особенности процесса диверсификации в сельском хозяйстве. Эффективность и направления диверсификации в различных регионах изучены с учетом имеющихся ресурсов, климатических условий, состояния рынка труда и инфраструктурного потенциала. На основе научного анализа предложены модели региональной диверсификации.

Ключевые слова: сельское хозяйство, диверсификация, региональное развитие, аграрный сектор, ресурсы, рыночная инфраструктура.

This article analyzes the regional characteristics of the diversification process in agriculture. The effectiveness and directions of diversification across various regions have been studied based on available resources, climatic conditions, the labor market, and infrastructure potential. Based on scientific analysis, regional diversification models have been proposed.

Keywords: agriculture, diversification, regional development, agrarian sector, resources, market infrastructure

Bugungi globallashuv sharoitida qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish agrar sohani barqaror rivojlantirishning muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi. U mahsulot turlarini kengaytirish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda agrar islohotlar, klaster tizimi va suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish diversifikatsiyani qo‘llab-quvvatlamogda. Hududlar o‘rtasidagi tabiiy sharoitlar farqi sababli diversifikatsiya hududiy ixtisoslashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bandlikni kengaytirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishni hududiy rivojlanish, raqobatbardoshlik va barqaror agrar iqtisodiyotning muhim omili sifatida baholaydilar. Jumladan, Michael Porter milliy raqobatbardoshlik nazariyasida har bir hudud o‘z tabiiy resurslariga tayangan holda ixtisoslashgan tarmoqlarni rivojlantirishi zarurligini ta‘kidlaydi. John Dixon esa iqlimga mos ekin turlarini tanlash va suv tejavchi agrotexnologiyalarni joriy etish samarali diversifikatsiyaning muhim sharti ekanligini qayd etadi. Ushbu ilmiy qarashlar O‘zbekistonda hududiy diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolada qishloq xo‘jaligini hududiy diversifikatsiya qilish jarayoni tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullari asosida o‘rganildi. Diversifikatsiya mahsulot turlarini ko‘paytirish bilan birga, hududlarning iqlimiy, resurs va bozor sharoitlariga mos ixtisoslashuvni ta‘minlash jarayoni sifatida talqin etildi.

Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish masalalari agrar iqtisodiyot va hududiy rivojlanish nazariyalarida keng o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda diversifikatsiya agrar ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Agrar sohada diversifikatsiya jarayonlarining nazariy asoslari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, M. Porter hududiy raqobatbardoshlik nazariyasida har bir hudud o‘z tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatiga tayangan holda ixtisoslashgan tarmoqlarni rivojlantirishi zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, hududiy ixtisoslashuv va diversifikatsiya o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilganda iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanish ta‘minlanadi[1; 2; 3].

Qishloq xo‘jaligida diversifikatsiya masalalari J. Dixon hamda boshqa agrar iqtisodiyot tadqiqotchilari tomonidan ham o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish ekin turlarini ko‘paytirish, iqlim sharoitiga mos agrotexnologiyalarni joriy etish va suv-resurslardan samarali foydalanish orqali agrar tizimning barqarorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

1-jadval

O‘zbekiston hududlarida diversifikatsiya salohiyati va yo‘nalishlari tahlili[4]

№	Hudud	Tabiiy-iqlimiy sharoit	Asosiy resurs salohiyati	Diversifikatsiya yo‘nalishlari	Kutilayotgan natija
1	Qoraqalpog‘iston	Qurg‘oqchil, sho‘rланish yuqori	Yaylovlar, chorva uchun yer	Chorvachilik, sho‘rga chidamli ekinlar	Oziq-ovqat xavfsizligi va bandlik
2	Xorazm viloyati	Sug‘oriladigan yerlar	Suv resurslari cheklangan	Sabzavotchilik, intensiv bog‘dorchilik	Eksport salohiyatini oshirish
3	Farg‘ona vodiysi	Serhosil yerlar	Mehnat resurslari ko‘p	Bog‘dorchilik, uzumchilik, issiqxona xo‘jaligi	Yuqori qo‘shimcha qiymat
4	Samarqand viloyati	Mo‘tadil iqlim	Agroqayta ishlash bazasi	Meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlash	Ichki va tashqi bozorni kengaytirish
5	Surxondaryo viloyati	Iliq iqlim	Erta hosil imkoniyati	Erta sabzavotchilik, sitrus ekinlar	Raqobatbardoshlikni oshirish
6	Jizzax viloyati	Qisman qurg‘oqchil	Bo‘sh yer maydonlari	Donchilik, chorvachilik	Resurslardan samarali foydalanish
7	Buxoro viloyati	Qurg‘oqchil	Keng yaylovlar	Chorvachilik va yem-xashak ekinlari	Mahsulot turlarini ko‘paytirish
8	Toshkent viloyati	Mo‘tadil	Infratuzilma rivojlangan	Intensiv dehqonchilik va agroklastar	Innovatsion agribiznes rivoji

Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish jarayoni hududiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq aholisining bandligini ta‘minlash bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi. Diversifikatsiya nafaqat mahsulot turlarini kengaytirish, balki hududlarning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga mos ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, agroklaster tizimini rivojlantirish va hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Ular agrar tarmoqlarda diversifikatsiyani rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash mumkinligini ta‘kidlaydilar.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini hududiy diversifikatsiya qilish agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston hududlarida qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish jarayonida tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hududlari o‘rtasidagi tabiiy sharoitlarning farqlanishi, jumladan iqlim, tuproq unumdorligi, suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi hamda yer fondining tarkibi agrar ishlab chiqarishni hududiy ixtisoslashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi faoliyatini har bir hududning geografik va resurs salohiyatidan kelib chiqib rivojlantirish, mavjud tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali mahsulot yetishtirish hajmini va sifatini oshirish muhim hisoblanadi.


Hududiy diversifikatsiya jarayonida mehnat resurslari salohiyati, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, ichki va tashqi bozorlarning talabi, shuningdek aholi ehtiyojlari va iste‘mol tarkibi ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur omillar qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini hududlar kesimida to‘g‘ri ixtisoslashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda qishloq hududlarida bandlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, logistika tizimining rivojlanganligi yetishtirilgan mahsulotlarni tezkor tashish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash uchun ekin turlarini o‘zgartirish, agroqayta ishlash sanoatini rivojlantirish, kichik agrobiznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini klaster tizimi asosida tashkil etish zarur hisoblanadi.

Hududlar o‘rtasidagi tabiiy-iqlimiy sharoitlarning farqlanishi qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishda differensial yondashuvni talab etadi. Qurg‘oqchil va sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan Qoraqalpog‘iston va Buxoroda chorvachilik hamda sho‘rga chidamli ekinlar ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Serhosil yer va rivojlangan infratuzilmaga ega Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Toshkent viloyatlarida esa intensiv bog‘dorchilik, uzumchilik va agroqayta ishlash yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadi. Surxondaryoda iliq iqlim erta sabzavot va sitrus yetishtirishga imkon bersa, Xorazmda suv tejoychi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Jizzaxda esa donchilik va chorvachilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Umuman, diversifikatsiya yagona model asosida emas, balki hududiy ixtisoslashuv tamoyiliga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Uning samaradorligi resurs salohiyati, infratuzilma va logistika imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib, eksportbop va qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hududiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Hududiy diversifikatsiyaning yana bir muhim jihati bandlikni oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilash bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, qishloq hududlarida ayollar va yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Diversifikatsiya O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish siyosatining asosiy strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida hududiy ixtisoslashuv asosida agrar tarmoqlarni rivojlantirish, mahsulot turlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini tashkil etish hamda agrobiznes klasterlarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayon samaradorligini baholashda diversifikatsiya indeksi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.



2020–2024-yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishning o‘shish dinamikasi [5]

Yuqoridagi diagramma 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish indeksi o‘shish dinamikasini vizual tarzda taqqoslab beradi. Unda diversifikatsiya darajasi har yili sezilarli oshgani, bu esa agrar sohadagi islohotlar samaradorligi va hududiy strategiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

2020–2024-yillar oralig‘ida diversifikatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, indeks sezilarli darajada o‘sdii. 2020-yilda ko‘rsatkich 42% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 70% ga yetdi. Bu esa umumiy hisobda 28 foizlik o‘shishni anglatadi va agrar islohotlarning ijobiy natijasini aks ettiradi.

2021-yilda indeks 48% ga ko‘tarildi, bu klaster tizimining joriy etilishi hamda agrobiznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi. 2022-yilda esa ko‘rsatkich 56% ga yetib, issiqxona xo‘jaligi, erta pishar ekinlar va agroqayta ishlash sanoatining faol rivojlanishi hisobiga eng yuqori yillik o‘shish (+8%) kuzatildi. 2023 va 2024-yillarda diversifikatsiya indeksi mos ravishda 63% va 70% ni tashkil etdi. Bu davrda klasterlarni rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va agrar infratuzilmani takomillashtirish izchil davom etdi. Ayniqsa, bozor infratuzilmasiga yaqin hududlarda tez aylanadigan ekinlar (sabzavot, poliz, uzum) hajmi oshdi va qayta ishlash klasterlarining samaradorligi kuchaydi.

Umuman olganda, yillik o‘shish tendensiyasi hududiy diversifikatsiya siyosatining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Kelgusida innovatsion texnologiyalarni, suv tejovchi tizimlarni va ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish orqali ushbu jarayon yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, hududiy resurs salohiyatidan to‘liq foydalanish va aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan muhim strategik jarayondir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududiy xususiyatlarga mos ixtisoslashuvni rivojlantirish, klaster tizimini joriy etish hamda bozor talabiga mos mahsulotlar yetishtirish diversifikatsiya samaradorligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Musaev, I., Khakimova, K., Nuretdinova, M., & Jalolova, M. (2024). Enhancing Sustainable Agriculture through Crop Diversification in Uzbekistan.
2. Bobojonov, I., Lamers, J.P.A., Bekchanov, M., Djanibekov, N., Franz-Vasdeki, J., Ruzimov, J., & Martius, C. (2013). Options and Constraints for Crop Diversification: A Case Study in Sustainable Agriculture in Uzbekistan.
3. Тешабаева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). Ўзбекистон республикасида аграр секторда тадбиркорлик ривожланишининг ўзига хос жиҳатлари. Academic research in educational sciences, 4(1), 22-30.

4. Teshabaeva, O. N. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(3), 48-58.
5. Teshabayeva, O., & Rakhmanova, G. (2025, April). Statistical insights and policy directions for sustainable tourism in Uzbekistan. In conference of modern science & pedagogy (Vol. 1, No. 1, pp. 170-176).

UDK:331

**TA'LIM BITIRUVCHILARINING KO'NIKMALARI VA MEHNAT BOZORI
EHTIYOJLARI O'RTASIDAGI NOMUVOFIQLIK MUAMMOSI**

**ПРОБЛЕМА НЕСООТВЕТСТВИЯ НАВЫКОВ ВЫПУСКНИКОВ ПОТРЕБНОСТЯМ
РЫНКА ТРУДА**

**THE PROBLEM OF MISMATCH BETWEEN THE SKILLS OF GRADUATES AND THE
NEEDS OF THE LABOR MARKET**

Zufarova Gulmira Abduxalilovna

Andijon davlat texnika instituti "Iqtisodiyot"
kafedrası professori, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimi bitiruvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalari bilan mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasida yuzaga kelayotgan nomuvofiqlik (skills mismatch) muammosi nazariy o'rganiladi. Iqtisodiyotning real sektorida iqtisodchi- muhandislarga bo'lgan ehtiyojlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, ta'lim sifati, muhandis-iqtisodchi, kompetensiya, ko'nikmalar nomuvofiqligi, inson kapitali, bandlik, kadrlar tayyorlash.

В данной статье теоретически исследуется проблема несоответствия профессиональных знаний и навыков выпускников современной системы образования потребностям рынка труда. Обосновывается потребность в инженер-экономистов в реальном секторе экономики.

Ключевые слова: рынок труда, качество образования, инженер-экономист, компетентность, несоответствие навыков, человеческий капитал, занятость, подготовка кадров.

This article theoretically studies the problem of skills mismatch between the professional knowledge and skills of graduates of the modern education system and the needs of the labor market. The needs for economists-engineers in the real sector of the economy are substantiated.

Keywords: labor market, education quality, competency, skills mismatch, human capital, employment, personnel training.

Bitiruvchilarning ko'nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik akademik bilimlar va ish beruvchilarning amaliy talablari o'rtasidagi tafovutda namoyon bo'ladi. Asosiy muammolar qatoriga o'quv profillariga talabning yo'qligi, tegishli moslashuvchan ko'nikmalarning yo'qligi va yuqori darajada ixtisoslashgan kompetensiyalarning yo'qligi kiradi, bu esa yoshlarni ish bilan ta'minlash samaradorligini pasaytiradi va kasbiy moslashuvni sekinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston—2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, «O'zbekiston — 2030»